

**BOLA TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING O'RNI**

*Navoiy shahar 4 - DMTT tarbiyachilari*

*Jalilova Muqaddas Muxsinovna*

*Mardonova Kamola Mavlonovna*

**Annotatsiya:** Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishniga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishni ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi bo'lib, tarbiya vositasida oilada komil inson shaxsi shakllantirishning ayrim usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, o'ta kuchli axloqiy mas'uliyat, emotsional raddiya, qattiqqo'llik, ziddiyatli tarbiya.

**Аннотация:** Воспитание – это практический педагогический процесс, направленный на формирование у человека определенных физических, психических, нравственных и духовных качеств; представляет собой комплекс мер, направленных на то, чтобы человек обладал характеристиками, необходимыми для жизни в обществе, и выделены некоторые методы формирования совершенной человеческой личности в семье средствами воспитания.

**Ключевые слова:** Воспитание, эмоциональное отрицание, строгость, конфликтное воспитание.

**Annotation:** Education is a practical pedagogical process aimed at forming certain physical, mental, moral and spiritual qualities in a person; is a set of measures taken to ensure that a person has the characteristics necessary for living in society, and some methods of forming a perfect human personality in the family through the means of education are highlighted.

**Key words:** Education, strong moral responsibility, emotional rejection, strictness, conflict education.

Farzand-inson hayotining mazmuni, nasl nasabinining davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan, ham ma'nan ulg'ayib shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Farzandlarimiz sog'lom, e'tiqodli jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasizga yuklangan. Rasululloh Sallallohu alayhi vasallam "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza

uloqtirishni ,otda choptirishni o'rgatinglar!"-deb, Farzandlaringizni chaqqon,sog'lom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatlarini targ'ib qildilar.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 23-avgustda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida umumta'lim maktablari o'quv dasturiga "Tarbiya" fanini kiritish va o'qitish tashabbusi ilgari surilgan edi. Bu xayrli tashabbus, chin ma'noda, kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlod tarbiyasi, ta'lim olishi, buyuk ajdodlarimizga munosib farzandlarni voyaga yetkazishdek hayotiy zarurat bilan chambarchas bog'liq. Shu maqsadda maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy etish zarurligi qayd etildi. Mazkur tashabbus ro'yobi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyulda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va hozir shu asosda keng ko'lamli ishlar olib borilyapti.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Ma'lumki, tarbiya o'z mazmun-mohiyati bilan milliy hamda umuminsoniy mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida ijobiy, oliyjanob fazilatlarini birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Boisi, tarbiyasi og'ir, ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum bo'lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofga, va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" buyuk maqsadiga erishuvda ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Mazkur masala o'ta dolzarb bo'lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Zardushtiylik ta'limoti uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal". Shu uchallasiga rioya

qilgan odam zardushtlar nazdida kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yanada yorqinroq soʻz aytgan: “Bolaning tabiati rivojlanishga moyil boʻladi, uni qanday gʻoyalalar bilan toʻldirish ota-ona va ustozga bogʻliq”. Maktab ostonasiga oyoq qoʻyish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng begʻubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy baʼzi burchlarni, vaholanki, oʻz shaxsi uchun zarur boʻlgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga oʻtadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha koʻpaygan boʻladi. Yaʼni u oʻz obroʻsini endi nafaqat oila aʼzolari oʻrtasida, aksincha, jamiyat oʻrtasida oila obroʻsini oʻz shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Maktab davrida turli vaziyatlar tufayli har xil tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar farzandlariga oʻqituvchisi haqida salbiy fikr bildirmasdan, balki qandaydir tushunmovchilik tufayli oʻqituvchining notoʻgʻri yoʻl tutganligini tushuntirishi lozim. Pedagog tomonidan qandaydir nooʻrin ish sodir boʻlgan boʻlsa, ota-onalar buni farzandiga bildirmasdan, oʻqituvchisi bilan alohida gaplashishi lozim. Sababi, bu hodisa oʻquvchiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ruhiy muhiti sogʻlom oila aʼzosi boʻlgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli boʻlmasin, bola uchun jiddiy qiynchiliklar tugʻdirmaydi. Chunki maktabda oʻqituvchi hamma bolalarga bir koʻz bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan maktab uning oʻzi uchun kerak boʻlgan burch ekanligini uqtirish kerak. Ana shunday yondashuvgina bolaga uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burchi sifatida qarashga oʻrgatadi. Oʻzini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni ham hurmat qilmaydi, oʻz burchini sezgan shaxsda esa oʻz shaxsiga hurmat tuygʻusi tobora ortib, shakllanib boradi.

Shuningdek, oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni ogʻir esdan chiqaradi. Koʻpchilik orasida izza boʻlganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sogʻlom boʻlsin, desangiz bolangizning hozirgina qilgan nooʻrin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan xatti-harakatini qoralab uni jazolab oʻtirmang, ayniqsa, voqeani yuziga solib, izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif boʻlishi xavfi boʻlsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato boʻlishi mumkin boʻlgan ishlardan ogohlantirib, tarbiyalab borsangiz, uning oiladagi oʻrnini mustahkamlagan boʻlasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Samarqand Qishloq Xoʻjalik Instituti. Pedagogika Tarixi va Gʻoyalari (Oʻquv uslubiy qoʻllanma). Samarqand-2014. 14-bet
2. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpoʻlatova va boshq. Maktabgacha taʼlim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma. (Toʻldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 b.
3. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017